

**TRANSPORT TIZIMIDA INTELLEKTUAL BILIMLARNI  
QO'LLASH SALOHIYATI**

*Dusmatova Marg'uba Ibrohimjonovna*

*1-sonli kasb-hunar maktabi maxsus fan o'qituvchisi*

**Annatatsiya:** Maqolada tizimni raqamlashtirishda, xususan tashish xizmatlarida raqamlashtirish modelini rivojlantirish va tizimni yanada keng foydalanish, jamoat transportida avtobuslarni harakatini nazorat qilish va yo'lovchilar uchun kelish vaqtini oldindan ko'ra olish imkoniyatini ta'minlash imkonini, shuningdek aholiga ko'rsatiladigan yo'lovchi tashish xizmatlari faoliyatida shaffoflik va ochiqlikni ta'minlash bag'ishlangan bo'lib, ishni bajarish davomida raqamli integratsiya va uning iqtisodiyotdagи о'rni, bu sohada xorijiy davlatlar tajribasi va O'zbekistonda bu sohada olib borilayotgan ishlar tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** raqamli texnologiya, innovatsiya, tizim, IT-part, strategiya, axborot, boshqaruv.

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lif, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklar tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta'minlashni ko'zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish boshlangan. O'zbekistonda dastlabki —Raqamli O'zbekiston – 2030 termini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida ishlataldi, ya'ni, —Iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilashni nazarda tutadigan Raqamli iqtisodiёт milliy kontseptsiyasini ishlab chiqishimiz kerak. Shu asosda —Raqamli O'zbekiston – 2030 dasturini hayotga tatbiq etishimiz zarur. Raqamli iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotni kamida 30 foizga o'stirish, korruptsiyani keskin kamaytirish imkonini beradi. Bu borada axborot xavfsizligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratish zarur, degan fikrni alohida ta'kidlab o'tgan edilar.

Raqamlashtirish imkoniyatlari. Transport tizimining eng muhim vazifalaridan biri iqtisodiyot va aholining xavfsiz va samarali transport xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish sifatini oshirish orqali mamlakatimiz transport-yo'l kompleksi faoliyatining maksimal samaradorligini ta'minlashdir. Aholining zaruriy harakatchanligini ta'minlash vazifasini amalga oshirish faoliyatning o'zaro bir-birini

to‘ldiruvchi ikkita yo‘nalishi tufayli amalga oshiriladi: yangi yo‘l uchastkalarini qurish va zamonaviy axborot, telekommunikatsiya va telematik texnologiyalardan foydalangan holda transport tizimini tashkiliy boshqarish texnologiyalarini joriy etish. Evropa Ittifoqi mamlakatlari, AQSh, Yaponiya, Xitoy va boshqa davlatlarning intelektual transport tizimlarini (ITT) loyihamonlari ilgari surish tajribasi shuni ko‘rsatadiki, bozor iqtisodiyoti sharoitida faqat bitta davlat siyosatini yurgizish turli biznes sub'ektlarining sa'y-harakatlarini birlashtirishga imkon beradi. Transport sohasidagi milliy maqsadlarni hal qilishda iqtisodiyotning barcha darajalari va tarmoqlarini birlashtirish orqali erishish mumkin. Bunda davlat strategik va innovatsion funktsiyani amalga oshirib - asosiy texnologik va iqtisodiy yangiliklarni qo‘llab-quvvatlaydi, ularga dastlabki turtki beradi. Davlat to‘rt asosiy yo‘nalishda ishlashi kontseptual ahamiyatga ega:

- milliy ITT arxitekturasi va muvofiqlashtirishni rivojlantirish rejalarini ishlab chiqish uchun institutsional bazani yaratishda tashkiliy va muvofiqlashtiruvchi rol o‘ynaydi;
- tartibga soluvchi rol - huquqiy bazani yaratish, xavfsizlik va texnik muvofiqlik sohasidagi parametrlarni standartlashtirish;
- rag‘batlantiruvchi rol - jamoat transporti va favqulodda vaziyatlar xizmatlari sohasida ITT xizmatlarining tadqiqotlari va ijtimoiy yo‘naltirilgan shaffob loyihamonlarni qo‘llab-quvvatlash;
- investitsiya roli - xavfsizlik va unumidorlik muammolarini hal qiladigan ITT loyihamonlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, ular davlat va xususiy sheriklik asosida xususiy kapital ishtirokida yaratilishi va ishlashi mumkin.

Aholi turmush darajasini oshirish, fuqarolarning dolzarb muammolarini hal etish, ijtimoiy infratuzilmani yaxshilash va hududlarni rivojlantirish uchun munosib shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, 2017 — 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni izchillik bilan amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 18 yanvardagi №48 sonli qarori bilan, O‘zbekiston Respublikasida —Aqli shahar texnologiyalarini joriy etish Kontseptsiysi hamda 2019 — 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasida —Aqli shahar texnologiyalarini joriy etish Kontseptsiyasini amalga oshirish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi

—Aqli shahar texnologiyalarini joriy etishda loyihamonlarni amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari biri etib etib “Aqli transport” belgilangan:

—Aqli transport yo‘nalishida texnologik yechimlarni joriy qilish orqali quyidagilar ko‘zda tutiladi:

- yo‘l harakatini boshqarish tizimini avtomatlashtirish va transportlar oqimi ko‘rsatkichlarini monitoring qilish, shu jumladan real vaqt rejimida harakat shartlarini monitoring qilish;
- jamoat transportini boshqarishni dasturiy ta'minlash; yo‘l harakati qatnashchilariga avtomatlashtirilgan tizim orqali yo‘ldagi sharoitlar va vaziyatlar, jamoat transportining harakat jadvallari to‘g‘risidagi ma'lumotlarni yetkazish;
- jamoat transportida xavfsizlik tizimlari;
- axborot uzatish texnologiyalarini, ya‘ni ma'lumotlarni to‘plash va saqlash joyiga uzatishni ta‘minlaydigan 5G standartiga mos keluvchi aloqa vositalarini va bajaruvchi qurilmalarni, keng qamrovli Internet tarmog‘i va boshqa elementlarni joriy etish;
- Aqli shahar uchun Internet tarmog‘ining shahar platformalarini joriy qilish;
- transportlarni joylashtirish uchun bo‘sh joylar va ularning uzoqligini aniqlovchi
  - Aqli joylashtirish texnologiyasi;
  - avtomobil va yo‘llardan foydalanish uchun elektron to‘lov tizimlari;
  - yo‘lovchilarni tashish holatini uzluksiz monitoring qilish;
  - geoaxborot texnologiyalari va navigatsiya.

ITT ob'ektlarining tuzilishi uning murakkab loyihalari tarkibiga kiruvchi quyi tizimlar guruhlari majmuasini belgilaydi. Kichik tizimlar guruhlariga tijorat va maqsadli tashishlarni amalga oshiruvchi barcha toifadagi transport vositalarini boshqarishni dispatcherlik qilish, transport oqimlarini boshqarish uchun quyi tizimlar, axborot xizmatining quyi tizimlari, yo‘l inshootlari guruhlari, shu jumladan transport holati va yo‘lning holatini kuzatish kiradi. Ushbu kichik tizimlar guruhlari maqsadli loyihalash buyurtmasining predmeti bo‘lib, ITTga birlashtirilgan va mustaqil ravishda mavjud bo‘lishi mumkin. Ushbu guruhlar mintaqaviy (shahar) nazorat darajasi bilan ajralib turadi. Quyi tizimlar guruhlariga tarkibiy texnologiyalarni kiritish mumkin (masalan, transport harakatini boshqarish quyi tizimlari guruhiga bevosita va bilvosita boshqarish tamoyillarini ajratib turadigan ikkita murakkab texnologiyalar kiradi). Ushbu majmular shahar va idoralar darajasida mustaqil ish yuritish uchun buyurtma bo‘lishi mumkin. Qo‘llab-quvvatlovchi texnologiyalarni texnik jihatdan amalga oshirish yo‘l infratuzilmasi va transport vositalarining telematik elementlarini ishlab chiqish bilan, shuningdek ITTning barcha sub'ektlari va ob'ektlarining aloqa va kommunikatsion o‘zaro aloqalari uchun standartlarni ishlab chiqish (yaratish) bilan bog‘liq. ITTning funktsional arxitekturasi talablarni qo‘yadi va quyidagilarni tavsiflaydi:

- jumladan, tizimi darajasi tuzilishi ta'rifi;
- tizimni doimiy qo‘llab-quvvatlash (ITT yo‘l infratuzilmasi);

- dispatcherlik darajasi - ITT quyi tizimlarining funksional vazifalari bo'yicha boshqarish;
- tezkor boshqarish darajasi - tashqi axborot tizimlari (milliy, boshqa davlatlar, xalqaro) bilan o'zaro aloqalar to'g'risidagi qoidalar (transportning boshqa turlari, boshqa vazirliklar va idoralar);
- vaziyatni boshqarish darajasi - ITT sohasida vakolatli ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan o'zaro hamkorlik qoidalari;
- tizim ishini monitoring qilish darajasi - ITT samaradorlik ko'rsatkichlarini tahlil qilish, ma'lumotlarni umumlashtirish, hisobotlarni taqdim etish, tizimni yanada rivojlantirish strategiyasi bo'yicha qarorlar qabul qilish:
  - axborot tizimiga integratsiya darjasи;
  - tizim ob'ektlarini o'zining asosiy murakkabligi;
  - turli xil ish rejimlarida - barcha ITT ob'ektlari va sub'ektlarining aloqa shovqinlarining vositalari va ustuvorliklari - muntazam, operatsion, vaziyat (favqulodda va favqulodda holatlarda) qo'llash imkoniyatini oshiradi.

Xulosa qilib, turli transport korxonalari va shaxsiy transport vositasi egalari transport tizimida intelektual tizimlarni qo'llab kelmoqdalar. Bu orqali haydovchi ish rejimi, avtomobil ish rejimi, tranport vositasining texnik holati, harakat yo'nalishi kabi omillani nazorat qilish samarali hisoblanadi. Ularga o'rnatilgan intelektual vositalar real vaqt rejimida ishlashi nazorat va transport vositasidan samarali foydalanish imkoniyatini oshiradi. Bu esa transport vositasini bekor turib qolishi, yonilg'ini samarali tejash, ish vaqtidan samarali foydalanish, texnik nazorat kabi omillarni boshqarish orqali samarali ish olib borish, yo'lovchi tashish tizimida harakat jadvaliga moslashish, bekor to'htashlar, marshrutdan chetlashmaslik kabi omillarni boshqarishga erishish mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 28 apreldagi —Raqamli iqtisodiёт va elektron hukumatni keng joriy etish chora tadbirlari to'g'risidaлиgi PQ-4699-sonli qarori, <https://lex.uz/pdfs/4800657>
2. To'xtaboyev, M., & Ataxanov, X. X. R. (2021). Shorrahaldargi tirbandlikni oldini olish. Transport i logistika: Sifrovyye texnologii v razviti transportno-tranzitnogo potentsiala respubliki: Sbornik materialov Respublikanskoy nauchno-texnicheskoy konferentsii.
3. Tukhtabayev, M. A., Nuriddinov, A. D., & Tumanbayeva, B. I. (2021). Transport and pedestrian traffic at intersection of j. manguberdi and go\_zal narrow streets/Scientific and technical journal of NamIET/NamMTI ilmiy-texnika jurnali. Namangan: NamMTI, 6(3), 221-228.

4. Tuxtabayev, M. A., & Turgunov, I. B. (2022). Probki na peresechenii ulits Navoi i Kokand. Yestestvennoauchnyy jurnal «Tochnaya nauka».
5. Mamirov, U., Tuxtabayev, M., & Raxmonov, B. (2022). Vajnostь razvitiya proyekta velodorojki v Namangane. Yestestvennoauchnyy jurnal «Tochnaya nauka».
6. Nuriddinov, A. D., Tuxtabayev, M. A., Sodikov, B. D., Normirzayev, A. R., & Vaxabova, M. A. Shaxsuvarova I.V.
7. Норқўзиева, Дилрабо Шералиевна. "Таълим тизимида юзага келадиган низолар шахс ижтимоий–психофизиологик меъёрдан оғишининг қўриниши сифатида." *Academic research in educational sciences* 4.TMA Conference (2023): 537-541.
8. Норқўзиева, Д. "Мактаб ўқувчилари ўртасида юзага келадиган низоларни олдини олиш–конструктив хулқ самарадорлигининг омили сифатида." Журнал Педагогики и психологии в современном образовании I (2023).
9. Норқўзиева, Д. Ш. "Мактаб ўқувчиларида ўқув мотивациясини шакллантириш муаммо сифатида." *Academic research in educational sciences* 3.NUU Conference 2 (2022): 851-855.